MARKAZIY OSIYO GLOBAL KUCHLAR KESISHUVIDA: ROSSIYA–AQSH–XITOY UCHBURCHAGI VA INTEGRATSIYA KELAJAGI

Zuhriddinjon Ergashov

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

“Xalqaro munosabatlar” ta’lim yo‘nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: *N.Qolqanov, PhD, dotsent*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Osiyoning zamonaviy geosiyosiy ahamiyati, global kuchlar – Rossiya, AQSh va Xitoy o‘rtasidagi raqobat kontekstida tahlil qilinadi. Mintaqada yuz berayotgan siyosiy, iqtisodiy va xavfsizlikka oid jarayonlar, shuningdek, ushbu kuchlarning integratsiya jarayonlariga ta’siri yoritiladi. Tadqiqot natijasida Markaziy Osiyo davlatlari uchun muvozanatli tashqi siyosat yuritish va mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish muhim ekani asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *Markaziy Osiyo, geosiyosat, Rossiya, AQSh, Xitoy, integratsiya, global kuchlar, mintaqaviy hamkorlik, xavfsizlik, iqtisodiy rivojlanish.*

Abstract. This article analyzes the contemporary geopolitical significance of Central Asia in the context of competition among global powers — Russia, the United States, and China. It examines political, economic, and security-related processes in the region, as well as the influence of these powers on integration processes. The study argues that pursuing a balanced foreign policy and strengthening regional cooperation are essential for the Central Asian states.

Keywords: *Central Asia, geopolitics, Russia, United States, China, integration, global powers, regional cooperation, security, economic development.*

Bugungi globallashuv jarayonlari jadallashib, xalqaro tizimda kuchlar muvozanati o‘zgarib borayotgan bir sharoitda Markaziy Osiyo mintaqasi tobora muhim geosiyosiy hududga aylanmoqda. Ushbu mintaqa tarixan Yevropa va Osiyoni bog‘lovchi strategik ko‘prik sifatida shakllanib, savdo yo‘llari va sivilizatsiyalar

chorrahasi vazifasini bajargan. Xususan, qadimiy Buyuk Ipak yo‘li aynan shu hudud orqali o‘tgan bo‘lib, bugungi kunda ham transport-kommunikatsiya va logistika yo‘laklari nuqtai nazaridan uning geoiqtisodiy ahamiyati saqlanib qolmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston boy tabiiy resurslarga ega bo‘lib, mintaqaning iqtisodiy salohiyatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Xususan, Qozog‘iston hududi jihatidan mintaqadagi eng yirik davlat (taxminan 2,7 mln km²) bo‘lib, tabiiy resurslarga nihoyatda boydir. U dunyoda uran ishlab chiqarishning qariyb 40 foizini ta’minlaydi hamda neft zaxiralari bo‘yicha yetakchi mamlakatlardan biri sanaladi. Shu bilan birga, Qozog‘iston Markaziy Osiyoda yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmi bo‘yicha ham yetakchi o‘rinni egallaydi.

Turkmaniston esa tabiiy gaz zaxiralari bilan ajralib turadi. The Times of Central Asia ma’lumotlariga ko‘ra, uning gaz zaxiralari dunyoda 5-o‘rinda turadi (taxminan 400 trillion kub futga) [1]. Mamlakat iqtisodiyoti asosan gaz eksportiga tayangan bo‘lib, ayniqsa Xitoyga gaz yetkazib berishda muhim o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston Markaziy Osiyoning demografik markazi hisoblanadi - aholisi 38 milliondan ortiq bo‘lib, bu mintaqadagi eng katta ko‘rsatkichdir. U oltin ishlab chiqarishda dunyoda kuchli o‘ntalikka kiradi (yiliga 100 tonnaga yaqin) [2], shuningdek, paxta, mis va uran resurslariga ham ega. Geografik jihatdan esa mintaqaning transport va logistika markazi sifatida muhim rol o‘ynaydi.

Qirg‘iziston tog‘li hududi bilan ajralib turadi - uning hududining 90% ga yaqini tog‘lardan iborat. Mamlakat suv resurslariga boy bo‘lib, elektr energiyasining qariyb 90% ini gidroelektr stansiyalar orqali ishlab chiqaradi. Bundan tashqari, oltin qazib olish (masalan, Kumtor koni) iqtisodiyotda muhim o‘rin tutadi.

Tojikiston ham tog‘li davlat bo‘lib, hududining 90% dan ortig‘i tog‘lardan iborat. U Markaziy Osiyodagi eng katta gidroenergetika salohiyatiga ega mamlakatlardan biri

– umumiy gidroresurslarning qariyb 60% ni shu yerda joylashgan. Aholi jon boshiga suv zaxiralari bo‘yicha ham yetakchilardan hisoblanadi.

So‘nggi yillarda mintaqaning ahamiyati yana-da ortib bormoqda. Xitoy tomonidan ilgari surilgan “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi doirasida milliardlab dollar miqdorida investitsiyalar kiritilmoqda. Rossiya esa an’anaviy ta’sirini saqlab qolish uchun iqtisodiy va harbiy hamkorlikni davom ettirmoqda. AQSh esa Markaziy Osiyoga asosan xavfsizlik va geosiyosiy muvozanat nuqtai nazaridan yondashadi.

Bunday sharoitda Markaziy Osiyo global kuchlar – Rossiya, AQSh va Xitoy manfaatlari kesishadigan hududga aylanib, o‘ziga xos geosiyosiy “uchburchak” markazida qolmoqda. Ushbu raqobat mintaqa davlatlari oldiga murakkab tanlovlarni qo‘ymoqda: bir tomondan, tashqi kuchlardan iqtisodiy foyda olish, ikkinchi tomondan esa siyosiy mustaqillik va mintaqaviy barqarorlikni saqlab qolish zarurati mavjud.

Asosiy qism

Rossiya-Xitoy-AQSh uchburchagi Markaziy Osiyo geosiyosiy maydonida turli sohalar orqali o‘z ta’sirini namoyon etadi va har bir davlat o‘ziga xos kuch manbalariga tayangan holda mintaqada strategik pozitsiyasini mustahkamlashga intiladi.

Rossiya: an’anaviy ta’sir va xavfsizlik omili

Rossiya Markaziy Osiyoda tarixan shakllangan siyosiy, iqtisodiy va madaniy ta’sirini saqlab qolishga intilmoqda. 2023-yilda Rossiya va mintaqa davlatlari o‘rtasidagi savdo hajmi 40 milliard dollardan oshgani ushbu aloqalarning barqarorligini ko‘rsatadi.

Mehnat migratsiyasi ham muhim omillardan biri bo‘lib, millionlab Markaziy Osiyo fuqarolari Rossiyada faoliyat yuritadi. Ularning yuborayotgan pul o‘tkazmalari ayrim davlatlar iqtisodiyotida katta ulushni tashkil etadi. Jumladan, Tojikistonda bu ko‘rsatkich YIMning 30-40 foizigacha yetadi [3].

Rossiya xavfsizlik sohasida ham muhim rol o‘ynab, Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti doirasida mintaqada harbiy hamkorlikni rivojlantirmoqda va Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi va Shanxay hamkorlik tashkiloti kabi tuzilmalar orqali mintaqaviy siyosiy va xavfsizlik jarayonlariga ta’sir ko‘rsatib, o‘zining geosiyosiy mavqeini mustahkamlab bormoqda.

Xitoy: iqtisodiy ekspansiya va infratuzilma strategiyasi.

Xitoy Markaziy Osiyoda iqtisodiy vositalar orqali ta’sirini kengaytirib bormoqda. 2013-yilda boshlangan “Bir kamar – bir yo‘l” tashabbusi doirasida mintaqaga kiritilgan investitsiyalar hajmi 50 milliard dollardan oshgan.

Bugungi kunda Xitoy mintaqaning eng yirik savdo hamkorlaridan biri hisoblanadi. Masalan, Qozog‘iston eksportining qariyb 20 foizi Xitoyga to‘g‘ri keladi, Turkmaniston gaz eksportining esa 80 foizdan ortig‘i aynan shu davlatga yo‘naltirilgan [4]. Shuningdek, Xitoy Markaziy Osiyo davlatlar bilan savdo – sotiq bo‘yicha yetakchi o‘rinda turadi.

Xitoyning asosiy strategiyasi infratuzilma orqali iqtisodiy bog‘liqlikni kuchaytirishga qaratilgan bo‘lib, bu mintaqa rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Biroq ayrim hollarda qarzdorlik va iqtisodiy qaramlik xavfi ham ortib bormoqda.

AQSh: geosiyosiy muvozanat va strategik manfaatlar.

AQSh Markaziy Osiyoda asosan geosiyosiy muvozanatni ta’minlash va xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan siyosat olib bormoqda. Ayniqsa, 2001-yildagi voqealardan so‘ng Afg‘onistondagi operatsiyalar sabab mintaqa AQSh tashqi siyosatida muhim o‘rin egalladi.

Bugungi kunda AQShning asosiy maqsadlari – Xitoyning iqtisodiy kengayishini muvozanatlashtirish, Rossiyaning ta’sirini kamaytirish hamda muqobil transport va energetika yo‘laklarini rivojlantirishdan iborat. Shuningdek, “C5+1” muloqot platformasi orqali AQSh mintaqa davlatlari bilan siyosiy, iqtisodiy va ekologik hamkorlikni rivojlantirmoqda.

Umuman olganda, Rossiya, Xitoy va AQSh bugungi kunda dunyoning eng yirik iqtisodiy va harbiy qudratga ega davlatlari hisoblanadi. Ularning har biri global miqyosda turli strategik yo‘nalishlarda yetakchi o‘rinni egallaydi: Rossiya kuchli harbiy salohiyat va energetik resurslarga tayansa, Xitoy tez sur’atlarda o‘sayotgan iqtisodiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan ajralib turadi, AQSh esa innovatsion iqtisodiyot, texnologik ustunlik va global harbiy tizimdagi yetakchi mavqei bilan dunyoda eng kuchli ta’sir markazlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Shu nuqtai nazardan, Markaziy Osiyo davlatlari uchun eng muhim vazifa - muvozanatli tashqi siyosat yuritish, ya’ni hech bir davlatga haddan tashqari qaram bo‘lib qolmasdan, har uchala kuch bilan ham pragmatik hamkorlikni saqlab qolishdir. Bu yondashuv mintaqaga tashqi raqobatdan foyda olish, lekin ichki siyosiy mustaqillik va barqarorlikni saqlash imkonini beradi. Natijada Markaziy Osiyo global kuchlar raqobat maydoni bo‘lish bilan birga, o‘zining mustaqil geosiyosiy subyekt sifatida shakllanish jarayonini ham davom ettiradi.

Global kuchlar o‘rtasidagi raqobat Markaziy Osiyo davlatlari uchun xavfmi yoki imkoniyatmi?

Bu savolga javob ikki tomonlama xarakterga ega. Bir tomondan, Rossiya, AQSh va Xitoy o‘rtasidagi raqobat mintaqa davlatlariga investitsiyalar jalb qilish, infratuzilmani rivojlantirish va tashqi savdoni kengaytirish imkonini bermoqda. Ayniqsa, Xitoyning iqtisodiy loyihalari va Rossiyaning energetika hamkorligi bu borada muhim rol o‘ynaydi.

Boshqa tomondan, ushbu raqobat siyosiy bosim, iqtisodiy qaramlik va mintaqaviy bo‘linish xavfini ham keltirib chiqaradi. Agar Markaziy Osiyo davlatlari yagona strategiyani ishlab chiqmasa, ular yirik davlatlar manfaatlari o‘rtasida “bo‘linib ketish” ehtimoli mavjud.

Markaziy Osiyoda haqiqiy integratsiya mumkinmi?

So‘nggi yillarda mintaqa davlatlari o‘rtasida yaqinlashuv jarayonlari kuzatilmoqda. Chegaraviy muammolarni hal qilish, savdo aloqalarini kengaytirish va siyosiy muloqotning kuchayishi integratsiya uchun ijobiy asos yaratmoqda. Ammo integratsiya yo‘lida hali ham to‘siqlar mavjud: iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlar, suv va energetika resurslari bo‘yicha kelishmovchiliklar, hamda tashqi kuchlarning turli darajadagi ta’siri shular jumlasidandir.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev shunday degan: *“Mintaqamizning Yangi Markaziy Osiyo sifatidagi tarixiy uyg‘onish davri ostonasida turibmiz. Biz hamkorligimizning institutsional asoslarini yanada mustahkamlash, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga nisbatan tahdidlarga o‘zaro muvofiqlashtirilgan javobni ishlab chiqishni o‘z oldimizga vazifa qilib qo‘yganmiz. Biz uchun hozirning o‘zida mintaqamizni bundan 10-20 yildan keyin qanday ko‘rishni xohlashimiz bo‘yicha aniq tushunchaga ega bo‘lish muhimdir”* [5]. Ushbu fikr Markaziy Osiyo mintaqasining kelajak rivojlanish yo‘nalishini belgilashda strategik ahamiyatga ega. Unda mintaqa “Yangi Markaziy Osiyo” sifatida shakllanayotganligi ta’kidlanadi, bu esa davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik yangi bosqichga chiqayotganini anglatadi. Prezidentning bu yondashuvi mintaqani alohida davlatlar yig‘indisi sifatida emas, balki umumiy manfaat va o‘zaro bog‘liqlikka ega yagona geosiyosiy makon sifatida ko‘rishga asoslanadi.

Shuningdek, hamkorlikning institutsional asoslarini mustahkamlash g‘oyasi mintaqaviy munosabatlarni vaqtinchalik yoki norasmiy aloqalardan chiqib, barqaror va doimiy ishlaydigan tizimga aylantirish zarurligini bildiradi. Bu xavfsizlik, iqtisodiyot va siyosat sohalarida muvofiqlashgan mexanizmlar yaratishni talab qiladi.

Fikrning yana bir muhim jihati shundaki, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga tahdidlarga birgalikda javob berish zarurligi ta’kidlanadi. Bu esa mintaqa davlatlari o‘rtasida o‘zaro ishonchni mustahkamlab, tashqi va ichki xavf-xatarlarga qarshi umumiy pozitsiya shakllantirishni anglatadi.

Eng muhim jihatlardan biri – kelajakni oldindan aniq tasavvur qilish zarurati. Ya’ni, Markaziy Osiyo davlatlari bugungi kun bilan cheklanib qolmasdan, 10-20 yil keyingi rivojlanish modelini oldindan belgilashi kerak. Bu strategik rejalashtirish mintaqaning barqaror rivojlanishi va global maydonda mustahkam o‘rin egallashi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, Amerikalik siyosatshunos Frederik Starr Markaziy Osiyoni “Yevroosiyo yuragi” deb ataydi. Uning fikricha, mintaqaning barqaror rivoji butun Yevroosiyo xavfsizligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Starr ta’kidlaydiki, agar Markaziy Osiyo davlatlari o‘zaro hamkorlikni kuchaytira olsa, ular tashqi kuchlar bosimini kamaytirib, mustaqil rivojlanish modelini shakllantira oladi [6].

Britaniyalik olim Shirin Akiner esa Markaziy Osiyoda siyosiy barqarorlik va milliy rivojlanish tashqi kuchlar bilan muvozanatli aloqalar o‘rnatishga bog‘liq ekanini ta’kidlaydi. Uning fikricha, mintaqa davlatlari haddan tashqari bir kuchga qaram bo‘lib qolmasligi lozim, aks holda ularning siyosiy mustaqilligi xavf ostida qoladi [7].

Rossiyalik tadqiqotchi Aleksey Malashenko Markaziy Osiyodagi jarayonlarni tahlil qilar ekan, diniy omillar, xavfsizlik muammolari va ijtimoiy barqarorlik masalalari ham tashqi siyosat bilan chambarchas bog‘liq ekanini ta’kidlaydi. Uning fikricha, tashqi kuchlar raqobati ba’zan mintaqadagi ichki muammolarni yanada keskinlashtirishi mumkin [8].

Yuqoridagi olimlar fikridan ko‘rinib turibdiki, Markaziy Osiyo nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy, balki global strategik nuqtai nazardan ham muhim hudud hisoblanadi. Turli ilmiy qarashlar bitta umumiy xulosaga olib keladi: mintaqa davlatlari o‘zaro integratsiyani kuchaytirmas ekan, tashqi kuchlar ta’siri doimo ustun bo‘lib qoladi.

Shu sababli, Markaziy Osiyoning kelajagi ko‘p jihatdan uning ichki birlik darajasi, o‘zaro ishonch va hamkorlikka tayyorligiga bog‘liqdir.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo bugungi kunda Rossiya, AQSh va Xitoy manfaatlari to‘qnash keladigan strategik hudud hisoblanadi. Bu holat mintaqaga

iqtisodiy imkoniyatlar bilan birga siyosiy bosim va tashqi ta’sir xavfini ham olib keladi. Shu sababli davlatlar uchun asosiy vazifa – siyosiy mustaqillikni saqlash, o‘zaro integratsiyani kuchaytirish va muvozanatli tashqi siyosat yuritishdir. Faqat shunda Markaziy Osiyo barqaror va mustaqil siyosiy mintaqa sifatida rivojlanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Jalolova S. Turkmenistan identified as world’s largest source of methane super-emitters // Times Central Asia. - 2025. – 28 noyabr. – https://timesca.com/turkmenistan-identified-as-worlds-largest-source-of-methane-super-emitters/

2. O‘zbekiston oltin ishlab chiqaruvchi davlatlarning yetakchi o‘ntaligiga kirdi // Qalampir.uz. – 2024. – 14 noyabr. – https://qalampir.uz/uz/news/uzbekiston-oltin-ishlab-chik-aruvchi-davlatlarning-yetakchi-untaligiga-kirdi-109784

3. Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF). Regional Economic Outlook: Central Asia. – Washington, DC, 2023.

4. Osiyo taraqqiyot banki (ADB). *Asian Development Outlook 2023*. Manila, 2023. https://www.adb.org/publications/asian-development-outlook-2023

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti. “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” https://president.uz/oz/lists/view/8675

6. Starr, F. *Lost Enlightenment: Central Asia’s Golden Age*. Princeton University Press, 2013. - pp. 210-235.

7. Akiner, S. *Central Asia: New Arc of Crisis?* Royal Institute of International Affairs, 1993.- pp. 67–89.

8. Malashenko, A. *Islam in Central Asia*. Carnegie Moscow Center, 2012. - pp. 95-120.